Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta‘lim muassasalarining Buxgalteriya hisobi bakalavriat yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish bo‘yicha savollar bazasi

I. Mamlakatda o‘z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish bo‘yicha savollar

1. O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirishdan asosiy maqsad nima?
2. Buxgalteriya hisobi iqtisodiyot rivojlanishida qanday ahamiyatga ega?
3. Davlat tomonidan tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash nima uchun muhim?
4. Soliq tizimidagi islohotlarning asosiy maqsadi nimadan iborat?
5. Raqamli iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?
6. Elektron hisob-faktura tizimining afzalliklari nimalardan iborat?
7. Korxonalarda moliyaviy intizom nima uchun zarur?
8. Kichik biznesni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
9. Shaffof moliyaviy hisobot yuritish nima uchun muhim?
10. Buxgalterning korxonadagi asosiy vazifasi nimadan iborat?
11. Soliq to‘lovchilar uchun elektron xizmatlarning afzalligi nimada?
12. Davlat budjeti mablag‘laridan oqilona foydalanish nima uchun muhim?
13. Korxona faoliyatida ichki nazorat qanday rol o‘ynaydi?
14. Moliyaviy hisobotlardan kimlar foydalanadi?
15. Raqamlashtirish buxgalteriya ishiga qanday qulayliklar yaratadi?
16. Buxgalteriya axborotining ishonchliligi nima uchun muhim?
17. Soliq intizomi deganda nimani tushunasiz?
18. Korrupsiyaga qarshi kurashishda buxgalteriya hisobi qanday o‘rin tutadi?
19. Zamonaviy buxgalter qanday bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak?
20. Buxgalteriya hisobi iqtisodiy qarorlar qabul qilishda qanday ahamiyat kasb etadi?
21. Buxgalteriya hisobi milliy standartlarini takomillashtirish zarurati nimada?
22. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o‘tishdan qanday maqsad ko‘zlangan?
23. Soliq ma'murchiligini takomillashtirish tadbirkorlik faoliyatiga qanday ta'sir qiladi?
24. Davlat xizmatlarini raqamlashtirish buxgalterlar faoliyatini qanday o‘zgartirmoqda?
25. Elektron hujjat aylanishining korxona samaradorligiga ta'sirini izohlang.
26. Korxonalarda ichki auditni rivojlantirishning ahamiyati nimada?

27. Davlat xaridlarining ochiqligi iqtisodiyot rivojiga qanday ta'sir ko‘rsatadi?

28. Moliyaviy hisobotlarning shaffofligi investorlar uchun nima sababdan muhim?

29. Raqamli texnologiyalar buxgalter kasbining mazmunini qanday o‘zgartirmoqda?

30. Soliq siyosati va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntiring.

31. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy natijalari qanday?

32. Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobining o‘rni qanday?

33. Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish buxgalteriya kasbiga qanday ta'sir ko‘rsatmoqda?

34. Moliyaviy nazoratning davlat iqtisodiyotidagi ahamiyatini izohlang.

35. Budjet mablag‘laridan samarali foydalanishda buxgalteriya hisobi qanday rol o‘ynaydi?

36. Soliq hisobotlarini elektron shaklda topshirishning afzalliklari nimalardan iborat?

37. Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda buxgalteriya hisobi qanday ahamiyatga ega?

38. Zamonaviy buxgalter uchun axborot texnologiyalarini bilish nima uchun muhim?

39. Moliyaviy savodxonlikni oshirish mamlakat iqtisodiyotiga qanday ta'sir qiladi?

40. Buxgalteriya sohasidagi islohotlar yosh mutaxassislar oldiga qanday yangi talablarni qo‘ymoqda?

41. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etishning milliy iqtisodiyot uchun afzalliklarini tahlil qiling.

42. Raqamli transformatsiya sharoitida buxgalter kasbining kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini baholang.

43. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish korrupsiyaning oldini olishga qanday xizmat qiladi?

44. Soliq tizimidagi islohotlarning investitsion muhitni yaxshilashdagi ahamiyatini izohlang.

45. Davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirishda shaffof moliyaviy hisobotlarning o‘rni qanday?

46. Korxonalarda raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligini baholang.

47. O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish jarayonida buxgalteriya hisobi tizimini rivojlantirishning strategik ahamiyatini tushuntiring.

48. Buxgalteriya hisobi sohasidagi islohotlar xalqaro reyting va indekslarda mamlakat o‘rniga qanday ta'sir ko‘rsatishi mumkin?

49. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro talablarga mosligi xorijiy investitsiyalarni jalb etishda qanday rol o‘ynaydi?

50. Sizning fikringizcha, kelajakda O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimini yanada rivojlantirish uchun qanday ustuvor yo‘nalishlarga e'tibor qaratilishi lozim?

II. Bakalavriat ta'lim yo‘nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko‘rsatish) bo‘yicha savollar

1. Nima sababdan “Buxgalteriya hisobi” ta’lim yo‘nalishini tanladingiz?
2. Buxgalter kasbi siz uchun nimani anglatadi?
3. Buxgalteriyaning jamiyatdagi ahamiyati nimada deb o‘ylaysiz?
4. Ushbu kasbning qaysi jihati sizni ko‘proq qiziqtiradi?
5. Texnikumda olgan bilimlaringiz bu yo‘nalishni tanlashingizga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
6. Buxgalter qanday shaxsiy sifatlarga ega bo‘lishi kerak?
7. Sizningcha, buxgalter mas’uliyatli kasbmi? Nima uchun?
8. Kelajakda qaysi sohada buxgalter sifatida ishlashni xohlaysiz?
9. Buxgalter kasbining eng muhim vazifasi nimadan iborat?
10. Sizningcha, halollik buxgalter uchun nima sababdan muhim?
11. Buxgalter bo‘lish uchun qanday bilim va ko‘nikmalar zarur?
12. Kelajakdagi kasbiy maqsadingiz qanday?
13. Buxgalteriya hisobi fanlariga qiziqishingiz qachondan boshlangan?
14. O‘qish davomida o‘zingizni qanday rivojlantirishni rejalashtiryapsiz?
15. Buxgalter kasbining afzalliklari nimalardan iborat?
16. Sizningcha, buxgalter korxona faoliyatiga qanday hissa qo‘shadi?
17. Oliy ta'lim olish sizning kasbiy rivojlanishingiz uchun nima beradi?
18. Nima uchun aynan bakalavriatda o‘qishni davom ettirishni istaysiz?
19. Kasbiy rivojlanish uchun nimalarga e'tibor berishni rejalashtirgansiz?
20. Kelajakda o‘zingizni qanday mutaxassis sifatida tasavvur qilasiz?
21. Nima uchun bugungi kunda malakali buxgalterlarga ehtiyoj yuqori?
22. Buxgalter kasbining iqtisodiy taraqqiyotdagi o‘rnini qanday baholaysiz?
23. Agar buxgalteriya sohasida ishlasangiz, tashkilot rivojiga qanday hissa qo‘shishingiz mumkin?
24. Sizni ushbu kasbga qiziqtirgan asosiy omillar nimalar?
25. Buxgalteriya hisobi sohasida o‘zingizni rivojlantirish uchun qanday rejalar tuzgansiz?

26. Zamonaviy buxgalter axborot texnologiyalarini nima uchun yaxshi bilishi kerak?

27. Sizningcha, buxgalter doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi nima uchun muhim?

28. Kasbiy etika buxgalter faoliyatida qanday ahamiyatga ega?

29. Korxonaning moliyaviy holati yomonlashgan taqdirda, vaziyatni tahlil qilish va muammoni hal etish bo‘yicha qanday ketma-ket harakat qilgan bo‘lardingiz?

30. Jamoada ishlash buxgalter faoliyatiga qanday ta’sir qiladi?

31. Buxgalter kasbining jamiyat oldidagi mas'uliyati nimada?

32. Sizningcha, yaxshi buxgalterni boshqalardan ajratib turadigan fazilatlar qaysilar?

33. Oliy ta’lim sizning kasbiy imkoniyatlaringizni qanday kengaytiradi?

34. Kelajakda xalqaro sertifikatlar (masalan, ACCA, CIPA va boshqalar) olishni rejalashtirasizmi? Nima uchun?

35. Buxgalteriya hisobi sohasida innovatsion texnologiyalar qanday imkoniyatlar yaratmoqda?

36. O‘zingizni kelajakda rahbar yoki bosh buxgalter sifatida ko‘rasizmi? Izohlang.

37. Buxgalter kasbida mas'uliyat va aniqlik nima uchun muhim?

38. Siz uchun kasbiy muvaffaqiyat nimani anglatadi?

39. Buxgalter sifatida mamlakat iqtisodiyotiga qanday foyda keltirish mumkin?

40. Nima uchun buxgalteriya hisobi yo‘nalishi istiqbolli kasblardan biri hisoblanadi?

41. Buxgalteriya hisobi sohasini tanlashingiz shaxsiy maqsadlaringiz va mamlakat ehtiyojlari bilan qanday uyg‘unlashadi?

42. Agar sizga boshqa iqtisodiy yo‘nalishlar ham taklif qilinsa, nima uchun aynan buxgalteriya hisobini tanlagan bo‘lardingiz?

43. Kelajakda raqamlashtirish va sun'iy intellekt rivojlanishi buxgalter kasbiga qanday ta'sir qiladi, deb o‘ylaysiz?

44. Buxgalter sifatida kasbiy halollikni saqlash uchun qanday tamoyillarga amal qilgan bo‘lardingiz?

45. O‘zingizni besh yildan keyin qanday kasbiy darajada ko‘rasiz va bunga qanday erishmoqchisiz?

46. Buxgalteriya hisobi bo‘yicha oliy ta'lim olish sizning shaxsiy va kasbiy rivojlanishingizga qanday ta'sir qiladi?

47. Agar korxonada moliyaviy qonunbuzarlik holatiga duch kelsangiz, qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?

48. Sizningcha, zamonaviy buxgalter nafaqat hisobchi, balki menejer va maslahatchi ham bo‘lishi kerakmi? Fikringizni asoslang.

49. Buxgalteriya sohasida xalqaro tajribani o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish nima uchun muhim?

50. Sizningcha, oliy ta'limni muvaffaqiyatli tamomlaganingizdan so‘ng buxgalteriya hisobi sohasini rivojlantirish uchun qanday yangi g‘oyalarni amalga oshirish mumkin?

III. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o‘qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o‘z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlarini aniqlash) bo‘yicha savollar

1. O‘zingizni qanday uchta ijobiy sifat bilan tavsiflaysiz?
2. O‘qishda muvaffaqiyatga erishishingizga yordam beradigan fazilatlaringiz qaysilar?
3. Vaqtingizni qanday rejalashtirasiz?
4. Berilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarishga qanday yondashasiz?
5. Jamoada ishlash siz uchun qanchalik muhim?
6. Mas'uliyat deganda nimani tushunasiz?
7. O‘qish yoki ishda intizom nima uchun muhim?
8. Murakkab topshiriq berilganda ishni nimadan boshlaysiz?
9. Siz uchun halollikning ahamiyati nimada?
10. Texnikum davrida eng katta yutug‘ingiz nima bo‘lgan?
11. Bo‘sh vaqtingizda o‘zingizni rivojlantirish uchun nimalar qilasiz?
12. O‘zingizda qaysi ko‘nikmalarni rivojlantirishni istaysiz?
13. Tanqidni qanday qabul qilasiz?
14. Yangi bilimlarni o‘rganishga munosabatingiz qanday?
15. Biror xatoga yo‘l qo‘ysangiz, qanday yo‘l tutasiz?
16. Maqsad sari intilish siz uchun nimani anglatadi?
17. Jamoa oldida fikringizni erkin bayon qila olasizmi?
18. O‘qish jarayonida qanday qiyinchiliklarni yengib o‘tgansiz?
19. Siz uchun muvaffaqiyat nimani anglatadi?
20. O‘zingizni mas'uliyatli inson deb hisoblaysizmi? Misol keltiring.
21. Bir vaqtning o‘zida bir nechta vazifani bajarishga to‘g‘ri kelsa, ishni qanday tashkil qilasiz?
22. Jamoada kelishmovchilik yuzaga kelsa, qanday yo‘l tutasiz?
23. Mustaqil qaror qabul qilishga to‘g‘ri kelgan vaziyatni misol bilan tushuntiring.

24. Sizni boshqalardan ajratib turadigan kasbiy fazilat qaysi?

25. O‘zingizning kuchli va rivojlantirish zarur bo‘lgan tomonlaringizni qanday baholaysiz?

26. Stressli vaziyatlarda qanday ishlaysiz?

27. Kasbiy vazifalarni bajarishda aniqlik va tartibni qanday ta'minlaysiz?

28. Texnikumda amaliyot davomida qanday tajriba orttirdingiz?

29. Yangi dastur yoki texnologiyani o‘rganishga qanday yondashasiz?

30. Rahbar bo‘lsangiz, jamoani qanday boshqargan bo‘lardingiz?

31. O‘z ustingizda ishlashni qanday tashkil qilgansiz?

32. Muammoga duch kelganingizda kimningdir yordamini kutasizmi yoki avvalo o‘zingiz yechim izlaysizmi?

33. Kasbiy faoliyatda tashabbuskorlik nima uchun muhim?

34. Siz uchun vaqtni boshqarish nima sababdan muhim?

35. Qaysi shaxsiy fazilatingizni kelajakdagi kasbingiz uchun eng muhim deb hisoblaysiz?

36. O‘qish va shaxsiy hayot o‘rtasidagi muvozanatni qanday saqlaysiz?

37. Jamoaviy loyihalarda qanday rolni bajarishni afzal ko‘rasiz?

38. Texnikumdagi amaliy mashg‘ulotlarda qanday muammolarni hal qilgansiz?

39. O‘zingizni kelajakda qanday mutaxassis sifatida rivojlantirmoqchisiz?

40. Kasbiy faoliyatda doimiy o‘qib-o‘rganish nima uchun zarur?

41. Korxonada muhim moliyaviy hujjatda xato aniqlansa, vaziyatni qanday hal qilgan bo‘lardingiz?

42. Agar jamoa a'zolari bilan fikringiz mos kelmasa, qaroringizni qanday asoslagan bo‘lardingiz?

43. Sizga qisqa muddat ichida katta hajmdagi ish topshirilsa, uni qanday rejalashtirasiz?

44. Agar ish jarayonida axloqiy tamoyillarga zid holatga duch kelsangiz, qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?

45. O‘zingizning kasbiy rivojlanishingiz uchun keyingi besh yilga qanday reja tuzgansiz?

46. Buxgalteriya sohasida innovatsion g‘oyani amalga oshirish imkoniyati berilsa, qanday taklif ilgari surgan bo‘lardingiz?

47. Kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan xatolarning oldini olish uchun qanday tizimli yondashuvni qo‘llash lozim, deb hisoblaysiz?

48. O‘zingizning eng katta shaxsiy yoki kasbiy yutug‘ingizni ayting va unga qanday erishganingizni tushuntiring.

49. Sizningcha, zamonaviy buxgalter uchun qaysi soft skills (muloqot, tanqidiy fikrlash, liderlik, moslashuvchanlik va boshqalar) eng muhim hisoblanadi? Fikringizni asoslang.

50. Agar sizga yangi tashkil etilgan korxonada buxgalteriya hisobini yo‘lga qo‘yish vazifasi topshirilsa, ishni qaysi ustuvor yo‘nalishlardan boshlagan bo‘lardingiz?

IV. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo‘nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko‘nikmalarning mavjudligini aniqlash bo‘yicha savollar

1. Buxgalteriya hisobi nima va uning asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. Buxgalteriya hisobining asosiy vazifalarini sanab bering.
3. Aktiv va passiv tushunchalarini izohlang.
4. Korxona balansi nima?
5. Buxgalteriya balansi qanday qismlardan tashkil topadi?
6. Ikki yoqlama yozuv usuli nima?
7. Debet va kredit tushunchalarini izohlang.
8. Boshlang‘ich buxgalteriya hujjatlari nima uchun kerak?
9. Inventarizatsiya nima?
10. Asosiy vositalar deganda nimani tushunasiz?
11. Aylanma mablag‘lar nima?
12. Amortizatsiya nima va nima uchun hisoblanadi?
13. Daromad va xarajat tushunchalarini izohlang.
14. Moliyaviy natija qanday aniqlanadi?
15. Hisob registrlari nima?
16. Kassa operatsiyalari deganda nimani tushunasiz?
17. Bank hisobvarag‘i orqali amalga oshiriladigan hisob-kitoblarning afzalliklari qanday?
18. Soliq nima va uning asosiy vazifasi nimadan iborat?
19. Moliyaviy hisobot nima?
20. Buxgalter kasbiy etikasining asosiy tamoyillarini sanab bering.
21. Buxgalteriya hisobi obyektlarini sanab bering.
22. Xo‘jalik operatsiyasi tushunchasini izohlang.
23. Buxgalteriya hisobvaraqlari qanday tasniflanadi?
24. Korxona balansiga xo‘jalik operatsiyalarining ta'siri qanday bo‘ladi?
25. Asosiy vositalarni baholash usullarini tushuntiring.
26. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi qanday yuritiladi?
27. Debitorlik va kreditorlik qarzlari o‘rtasidagi farq nimada?
28. Ish haqi hisoblashda qanday asosiy hujjatlardan foydalaniladi?

29. Korxonada inventarizatsiya qaysi hollarda o‘tkaziladi?

30. Buxgalteriya hisobida hujjatlashtirish tamoyilining ahamiyati nimada?

31. Soliq hisobi va buxgalteriya hisobi o‘rtasidagi farqlarni izohlang.

32. Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot nima uchun tuziladi?

33. Moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar kimlar?

34. Ichki nazorat tizimining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

35. Elektron buxgalteriya dasturlarining afzalliklarini tushuntiring.

36. Korxonada kassa intizomi nima uchun muhim?

37. Buxgalteriya axborotining sifat ko‘rsatkichlarini sanab bering.

38. Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish nima uchun zarur?

39. Buxgalteriya hisobida xalqaro standartlarning ahamiyatini tushuntiring.

40. Buxgalter kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalarining o‘rni qanday?

41. Korxona 100 million so‘mlik asosiy vosita sotib oldi. Ushbu operatsiya balansning qaysi moddalariga ta’sir qiladi?

42. Korxona mahsulotni naqd pulsiz shaklda sotdi. Ushbu operatsiyaning buxgalteriya hisobida aks ettirilishini izohlang.

43. Inventarizatsiya natijasida kamomad aniqlansa, buxgalter qanday harakat qilishi kerak?

44. Korxonaning moliyaviy barqarorligini baholash uchun qaysi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi?

45. Debitorlik qarzlarining ortib borishi korxona faoliyatiga qanday ta'sir ko‘rsatadi?

46. Moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlash uchun qanday choralar ko‘rilishi lozim?

47. Agar korxonada ichki nazorat tizimi samarali ishlamasa, qanday moliyaviy xavflar yuzaga kelishi mumkin?

48. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning buxgalteriya hisobi rivojlanishiga ta'sirini tahlil qiling.

49. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini qo‘llash korxonaning investitsion jozibadorligiga qanday ta'sir qiladi?

50. Siz bosh buxgalter sifatida yangi tashkil etilgan korxonada buxgalteriya hisobini tashkil etish vazifasini olsangiz, ishni qaysi bosqichlardan boshlagan bo‘lardingiz?

Kafedra mudiri **O.Tobirov**